



## JISMONIY SHAXSLAR VA YURIDIK SHAXSLAR

**Rahimova Umidaxon Tursunalieva,**  
*Furqat tuman Kasb hunar maktabi Davlat va  
huquq asoslari o'qituvchisi*

Fuqarolarning fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirishuvining huquqiy asosi fuqarolarnnng huquqdorlik qobil iyati xisoblanadi, bunday huquqiy qobil niiyat deyilganda fuqarolarning huquq va vazifalarga ega bo'lish qobil iyati tushuniladi. Fuqarolarning huquqdorlik qobil iyati teng ravishda xar bir fuqaroga tatbiq etiladi, bunda uning yoshi, salomatligi, millati, jinsi va shu kabilar xisobga olinmaydi. Xar bir fuqaro: katta yoshidagi kishi ham, bola ham, soglom va ruxiy xasta bola ham fuqarolik huquqlari va vazifalarpga ega bo'lishi mumkin. Fuqarolik qonunlari bir qator xollarda bolaning ham fuqarolik huquqlarini tan oladi, bu bola xa-li tugilmagan ham bo'ladi, u tirik turiladi (merosxo'r bo'ladi) deb faraz qilinadi.

Respublika fuqarolari bilan bir katorda ajnabiy fuqarolar va fuqarolik huquqiga ega bo'limgan shaxslar ham fuqarolik-huquqiy layoqatdan (garchi ba'zi bir cheklashlar bilan bo'lsa ham) foydalanadilar.

Fuqarolik-huquqiy layoqati — bu huquqlar mikdori emas, balki fuqarolik huquqlari va vazifalariga ega bo'lishi uchun kerak bo'ladigan huquqiy asosdir. Huquqiy layoqat inson tugilishi bilan qo'lga kiritiladi va uning vafoti bilan tugaydi. Lekin bir qator xollarda bu huquq ilgariroq, xususan shaxsning noma'lum tarzda yo'k bo'lganligi sud tomonidan e'tirof etilgan, vafot etgan deb xisoblangan xollarda ham tugaydi.

Huquqiy layoqatning mazmuni fuqarolik qonunlariga binoan shaxs ega bo'lishi mumkin bo'lgan fuqarolik huquqlari va vazifalari majmuidan iboratdir.

Fuqaro mulkiy huquq asosida mol-mulkka ega bo'lishi, mumkin meros kilib olishi, tadbirqorlik faoliyati va qonunlar bilan takiklanmagan boshqa xar qanday faoliyat bilan shugullanishi, o'zi mustaqil, ravishda yoki boshqa fuqarolar va tashkilotlar bilan yuridik shaxs bo'lishi, qonun bilan takiklanmagan xar qanday bitimni amalga oshirishi va majburiyatlarda ishtirok etishi, yashash joyini tanlashi, ixtiro, fan, adabiyot, sanxat asari muallifi bo'lishi yoki boshqa aqliy faoliyat natijasiga ega bo'lishi huquqini qo'lga kiritishi, boshqa mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

Fuqaro qonunchiligi belgilab ko'yanidek, huquqi layoqatni cheklashga qaratilgan bitishuvlar xaqiqiy xisoblanmaydi. Qonun bilan belgilangan xollarda va tartibda fuqarolarning huquqiy layoqatini cheklash mumkin. Bunday cheklash sudning xukmi bilan g'uyidagi xollarda jazo chorasi sifatida amalga oshirilishi mumkin:



— ozodlikdan maxrum etilib, erkinligini cheklashga, xibsga olishga xukm etilganda;

— muayyan lavozimni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shugullanish huquqidan maxrum etilganda.

Fuqarolik-huquqiy layoqati faqat muayyan muddatga cheklanishi mumkin.

Huquqiy layoqatdan muomala layoqatini farklash kerak. Muomala layoqati deyilganda fuqaroning o'z xatti-xarakatlari bilan fuqarolik huquqlari va vazifalarini qo'lga kiritish qobil niyati tushuniladi. Huquqiy layoqatdan farkli ravishda fuqarolarning muomala layoqati turlicha bo'ladi. Muomala layoqati fuqaro 18 yoshga yetganda vujudga keladi. Fuqaro ana shu yoshga yetmasdan niqoxdan o'tgan takdirda u niqoxdan o'tgan vaktdan boshlab to'la xajmda yuridik saloxiyatga ega bo'ladi.

Qonunda shunday xollarga ham yo'l ko'yiladiki, bunda shaxs to'la ravishda muomala layoqatiga ega emas deb topiladi, qonun asosida cheklangan saloxiyatga ega bo'ladi yoki uning muomala layoqati sud qarori bilan cheklanadi.

Agar fuqaro o'zining ruxiy xastaligi yoki aqliy zaifligi tufayli o'z xatti-xarakatlarining ahamiyatini tushunishga qobil bo'lmasa, u to'liq muomala layoqatiga ega emas deb topiladi. Bunday shaxslar ustidan vasiylik o'rnatiladi. Bu shaxs nomidan bo'ladigan barcha huquqiy xarakatlarni vasiylik qiluvchi kishi amalga oshiradi. Sogayib ketgan takdirda fuqaroni sud muomala layoqatiga ega deb topadi va unga vasiylik qilishni beqor qiladi.

15 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan bolalar qisman muomala layoqatiga qobil iyatlari deb tan olinadi. Ular uchun bitimlarni ota-onalari, asrab olgan kishilar, vasiylar tuzadilar. Birok qonun 15 yoshgacha bo'lgan bolalarning mayda maishiy bitimlarni amalga oshiruviga yo'l ko'yadi.

15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar nisbiy muomala layoqatiga ega deb e'tirof qilinadi. Ular 15 yoshgacha bo'lgan bolalarga nisbatan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda birmuncha kengrok ishtirok etadilar. Ular xar qanday bitimlarni faqat ota-onalari roziligi bilan amalga oshirishlari mumkin. Ular mustaqil ravishda maoshlaridan foydalanishga, o'zlarining mualliflik va ixtirochilik huquqlarini ro'yobga chiqarishga xaklidirlar. Birok, puldan oqilona foydalanilmagan takdirda ota-ona, jamoatchilik, vasiylik va xomiylilik idoranining iltimosi bilan o'smir ish kaysi yoki stipendiyadan cheklangan mikdorda foydalanishi mumkin.

Agar fuqaro spirtli ichimliklarni Iste'mol qilsa yoki giyoxvandlik qilsa va bu bilan o'z oilasini ogir moddiy axvolga solib qo'ysa, fuqarolik qonunlarida uning muomala layoqatini cheklash imqoniyati ko'zda tutilgan. Bunday shaxslarning muomala layoqatini sud cheklaydi. Fuqaro spirtli ichimlikni suiIste'mol qilishni va giyoxvandlikni to'xtatgan takdirda sud muomala layoqatligini cheklashishini beqor qilishi mumkin. Shaxsning huquqiy layoqati cheklangan takdirda o'z-o'zidan uning muomala layoqatligini cheklash boshlanishi mumkin.

## Yuridik shaxslar

Yuridik shaxslar ham fuqarolik o'zaro munosabatlarining sub'ektlari xisoblanadilar. Bunday shaxslar sifatida o'z mol-mulkiga ega bo'lgan, xo'jalikni to'la ravishda yuritadigan yoki aloxida mulkni tezqorlik bilan boshqaradigan tashkilotlar e'tirof qilinadi, ular o'z majburiyatlari bo'yicha ana shu mol-mulk bilan javob beradilar va sudda (xo'jalik sudida) javobgar sifatida chiqa oladilar.

Shunday kilib, yuridik shaxs-uyushgan jamoadir. Yuridik shaxs muayyan mol-mulkka ega bo'lishi va o'z Qarzlari bo'yicha mustaqil javob berishi lozim. U, fuqarolik muomalasida o'z nomidan ish ko'rishga qodirdir.

Yuridik shaxsning tashkiliy birligi Nizom bilan mustaxkamlanadi. U yuridik shaxsni ta'sis etuvchilar, ular tuzadigan ta'sis shartnomasi yoki birgalikda boshqa xujjat bilan tasdiklanadi. Ular yuridik shaxsning nomini, uning tuzilishini, maqsadini, faoliyat tartibini, mulkiy axvolini belgilab beradi.

Yuridik shaxslarning mulkiy mustaqilligi turlichadir. Ularning bir xillari (jamoat va diniy tashkilotlar) mulkiy huquq; asosida, boshqalari to'la xo'jalik huquqi asosida (davlat korxonalar, davlat tashkilotlari), uchinchilari—tezqor boshqarish huquqi asosida mol-mulkka ega bo'ladilar. Mulkiy mustaqillik ham Ustav yoki ta'sis xujjati bilan mustaxkamlanadi.

Yuridik shaxs o'z mol-mulkini o'z nomidan mustaqil ravishda tasarruf qiladi, fuqarolik huquqlari va vazifalariga ega bo'ladi, xususan, shartnomalar tuzadi, majburiyatlar qabul qiladi va ular yuzasidan mustaqil javobgar bo'ladi. Yuqorida sanab o'tilgan belgilardan aqalli birortasi bo'lmay qolsa, bu tashkilotning yurndik shaxs emasligidan dalolat beradi.

Yuridik shaxslar ham huquqdorlik qobil niyatga yuridik saloxiyatlikka ega bo'ladilar. Jismoniy shaxslarning huquqdorlik qobil iyati va yuridik saloliyatidan farkli o'larok yuridik shaxslarda bu huquqdorlik qobil niiyat va saloxiyat ular adliya idoralarda ro'yxatga olingan paytdan boshlab bir vaktda paydo bo'ladi.

Yuridik shaxsning huquqdorlik qobil iyati maxsus huquqiy qobiliyat deyiladi. Xar bir yuridik shaxs faqat o'z faoliyatining maqsadiga binoan huquqiy qobiliyatga ega bo'ladi. U Nizomda belgilab ko'yilgan bo'ladi. Nizomda belgilangandan tashkari u amalga oshirilgan barcha huquqiy qobil iyatlar xaqiqiy emas deb xisoblanadi.

Yuridik shaxsning yuridik saloxiyati qonunlar va ta'sis xujjatlariga binoan ish olib boradigan uning idoralari orqali yoki vakillar orqali ro'yobga chiqariladi.

Yuridik shaxslar tijorat va notijorat tashkilotlar bo'lishi mumkin. Tijorat tashkilotlari uchun foyda olish ular faoliyatining asosiy maqsadi xisoblanadi, notijorat tashkilotlar uchun esa foyda olish ular faoliyatining asosiy maqsadi xisoblanmaydi.

Tijorat tashkilotlar xisoblangan yuridik shaxslarga xo'jalik jamiyatlari va shirkatlar, ishlab chiqarish qooperativlari, davlat, ijara, jamoa korxonalar va boshqa korxonalar kiradi.

Ikkinchı gurux yuridik shaxslarga jamoat va diniy tashkilotlar, matlubot kooperativlari, xayriya jamgarmalari va mulkdorning muassasasi mablagini olib turadigan boshqa jamgarmalar kiradi.

Yuridik shaxs mulk egasining qarori bilan yoki uning vakili bo'lgan idora yoki shaxsning, shuningdek, ta'sischilar deb ataluvchi boshqa tashkilotlar va fuqarolarning qarori bilan tashkil etilishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tilganidek, yuridik shaxs Nizom yoxud ta'sis xujjati asosida, yoki Nizom va ta'sis xujjati bilan birgalikda ular asosida ish olib boradi. Ayrim xollarda yuridik shaxs mazkur tipdagi tashkilotlar xaqidagi umumiy Nizom asosida ishlashi ham mumkin.

Ta'sis shartnomasi tuziladi, Nizom tasdiklanadi. Yuridik shaxsning ta'sis xujjatlarida uning nomi, manzili, faoliyatining maqsadi, yuridik shaxs organlari tarkibi va vaqolati belgilab berilishi lozim. Shuningdek boshqa xujjatlar: tegishli turdag'i yuridik shaxslar uchun qonunda ko'zda tutilgan xujjatlar ham bo'ladi.

Barcha yuridik shaxslar xokimiyatlar yoki adliya idoralarida davlat ro'yxatidan o'tishlari kerak. Yuridik shaxsni tashkil etishning qonun bilan belgilangan tartibi buzilgan takdirda yoki uning ta'sis xujjatlari ko'yilgan talablarga javob bermagan takdirda yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tishiga rad javobi berilishi mumkin. Yuridik shaxsni tashkil etish maqsadga muvofik emas degan baxona bilan uning ro'yxatdan o'tishini rad qilishga yo'l ko'yilmaydi. Davlat ro'yxatidan o'tkazishga rad javobi berilganda sudga, xo'jalik sudiga shiqoyat qilish mumkin.

Yuridik shaxsni qayta tuzish (qo'shib yuborish, birlashtirish, taksimlash, bo'lish, qayta tashkil qilish) mulk egasining yoki uning vakili bo'lgan idoraning qarori bilan, shuningdek yuridik shaxsning ta'sis xujjatlari bilan, vakil qilingan idoraning qarori bilan amalga oshiriladi. Yuridik shaxs yuridik shaxslar ro'yxatidan chiqarilgan paytdan extiboran u tarqatib yuborilgan deb xisoblanadi.

Yuridik shaxs boshqa yuridik shaxs bilan ko'shilib ketgan taqdirda ulardan xar birining mulkiy huquqlari va vazifalari ko'shilishi natijasida vujudga kelgan yuridik shaxsga o'tadi.

Yuridik shaxs bo'linishi natijasida paydo - bo'lgan yangi yuridik shaxslarga tarkatib yuborilgan yuridik shaxsning mulkiy huquqlari va vazifalari tegishli qismlarda taksimlash xujjati asosida o'tadi. Yuridik shaxsdan bitta yoki bir nechta yuridik shaxslar ajratishda mulkiy huquqlar va vazifalar ham tegishli qismlarda taksimlash xujjatiga muvofik o'tadi.

Yuridik shaxsni tugatish uchun g'uyidagilar asos xisoblanadi:

— mulk egasi yoki uning vakili bo'lgan idoraning, shuningdek yuridik shaxsning ta'sis xujjatlari bilan vakil qilingan idoraning qarori;

— yuridik shaxs singan takdirda yoki yuridik shaxsning faoliyati maqsadlariga zid faoliyat yoxud qonun bilan takiklangan faoliyat muntazam ravishda amalga

oshirilgan takdirda yoki bo'lmasa qonunchilik bir necha marta yoki ko'pol ravishda buzilgan takdirda sudning, xo'jalik sudining qarori;

— yuridik shaxs kaysi muddatga tashkil etilgan bo'lsa, o'sha muddat tugagandan so'ng yoki u kaysi maqsadlar uchun tashkil etilgan bo'lsa, o'sha maqsadlarga erishilgandan keyin.

Yuridik shaxsni tugatish uchun tugatish qomissiyasi tuziladi, uni tugatish xaqida qaror qabul qilgan idora tuzadi. Tugatish qomissiyasi yuridik shaxs joylashgan joydagи rasmiy matbuotda uning tugatilishi, Qarz bergaplarning Da'vo qilish tartibi va muddati xaqida e'lon beradi.

Tugatish komissiyasi tugatilayotgan yuridik shaxsnung mol-mulkini baxolaydi, Qarz bergenlar bilak xisob-kitob qiladi, tugatish balansini tuzib chiqadi va uni mulk egasiga yoki tugatish qomissiyasini tuzgan idoraga takdim etadi.

Qarz bergenlar bilan xisob-kitoblar g'uyidagi tartibda amalga oshiriladi:

— mexnat shartnomasi asosida ishlagan shaxslar mexnatiga xak to'lash xisob-kitoblari;

— byudjetga va ijtimoiy suggerta maqsadlariga, shuningdek ijtimoiy taxminotga to'lovlar;

— tugatilayotgan yuridik shaxs foydalanayotgan yerlarga ishlov berish xarajatlarini qoplash;

— Qonun aktlariga binoan Qarz bergenlar bilan xisob-kitoblari.

Mol-mulk yetarli bo'lмаган takdirda u Qarz bergenlar o'rtasida qondirilishi lozim bo'lgan talablar mikdoriga mutanosib ravishda tegishli navbat bilan taksimlanadi. Agar Qarz bergenlarning talabini qondirish uchun yuridik shaxsning pul mablari yetarli bo'lmasa, tugatish komissiyasi yuridik shaxsning mol-mulkini sotishi mumkin.

Qarz bergenlarning Da'volari qondirilgandan so'ng qolgan mablarlar mulk egasiga beriladi va unikg ixtiyoriga ko'ra foydalaniladi.

### Vakillik

Vakillik deb, bir shaxsning boshqa shaxs nomidan ish ko'rishiga aytiladi. Vakillikdan fuqarolar ham, yuridik shaxslar ham keng foydalanadilar. Xarakatlar shaxsning shaxsan o'zi amalga oshirishi mumkin bo'lgan xollarda (vasiyat qilish, niqoxdan o'tish) vakillikka yo'l ko'yilmaydi.

Vakillikning moxiyati shundan iboratki, vakil ish olib boradi, huquq va vazifalar vakil yuborgan kishi bo'ladi. Vakillik qonun bo'yicha (ota-onalar, vasiylar) va topshirik asosida bo'lishi mumkin. Topshirk maxsus xujjat-ishonchnomada—bir shaxs ikkinchi shaxsga uchinchi shaxs oldida vakillik qilishi uchun beriladigan yozma vaqolatda kayd etilishi lozim.

Ishonchnoma umumiy va maxsus bo'lishi mumkik. Umumiy ishonchnoma turli saxyi-xarakatlarni amalgg oshirish (shaxsiy mol-mulkni boshqarish) uchun vaqolatnn

nazarda tutadi. Maxsus ishonchnoma muayyan soxadggi bitishuvlarni (xom ashyo xarid qilish, maxsulotlar sotish) nazarda tutadi. Ishonchnoma yozma shaklda tuzilishi lozim. Unda kim, kimga va nimani qilishni topshirishi ko'rsatilishi lozim.

Ayrim ishonchnomalar uchun qonunda notarial shakl belgilangan. Bqlar:

— notarial shaklni talab qiladigan bitishuvlarni tuzish uchun ishonchnoma;

— qayta ishonib topshirish tartibida beriladigan ishonchnoma;

— fuqarolarga, yuridik shaxslarga nisbatan xarakatlarni amalga oshirish uchun beriladngan ishonchnoma.

Fuqarolarga ish xakini va mexnat munssabatlari bnlan borlangan boshqa to'lovlarni olishga, mualliflar, ixtirochilar, rasionalizatorlarning kalam xakini, pensiyalarni, nafakalarni, stipendiyalarni, omonat kassalaridan pul olishga xat-xabarlarni, shu jumladan pul va posilkalarni olishga beriladigan ishonchnomalar oddiy tartibda (uy-joy muassasala-rida, ish joyida, o'tish joyida, o'kuv muassasasi maxmuriyati tomonidan) tasdiklanadi. Yuridik shaxs nomidan nshonchnoma raxbarning imzosi va muxri ko'yilgan xolda, tovar-moddiy boyliklar olishga beriladigan ishonchnoma bosh xisobchi buxgaltering nmzosi bilan ham beriladi.

Ishonchnoma o'zining yuridik kuchini belgilangan muddat davomida, lekin uch yildan ko'prok bo'lman muddatda saklab turadi. Agar muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, ishonchnoma rasmiylashtirilgan paytdan boshlab rosa bir yil amal qiladi, shuning uchun ishonchnoma berilgan muddatni ko'rsatish zarur shgrt xisoblanadi. Aks xolda u xaqiqiy bo'lmaydi. Ishonchnomasiz vakillnk toifasi ham mavjud bo'ladi. Ularga sotuvchilar, kassirlar, atelg'eda buyurtmalarni qabul qiluvchilar va xokazolar kiradi.

Huquqiy saloxiyatga ega bo'lgan fuqarolar vakil bo'lishlari mumkin. 16 yoshga yetganlar esa istisno tariqasida vakil bo'la oladilar.

Vakil o'z vaqolatlarini faqat vakil kilib yuborgan shaxs manfaatlari yo'lida bajarishi lozim. U o'z shaxsiy manfaatlari yoki boshqa shaxslar manfaatlari yo'lida xech qanday xarakatni amalga oshira olmaydi.

Agar bitishuv uni amalga oshirishga vaqolati bo'lman boshqa shaxs nomidan yoki vaqolatlarni oshirib yuborgan xolda amalga oshirilsa, odatda vakil qilingan kishiga yuridik oqibatlar keltirib chiqarmaydi. Bitishuv agar vakil qilingan shaxs tomonidan keyin maxqllangan takdirda uning uchun huquqiy oqibatga ega bo'lishi mumkin.

### - Bitim

Bitim fuqarolik-huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishida eng ko'p tarkalgan asosdir. Bitim deyilganda fuqarolar va tashkilotlarning fuqarolik huquqlari va vazifalarini belgilash, o'zgartirish, to'xtatishga qaratilgan xarakatlar tushuniladi. Lekin xar qanday xarakat ham bitim bo'lavermaydi. Qonun doirasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan, yaxni huquqiy xarakat bitim bo'ladi.

Bitim irodaviy xarakat, yaxni ko'yilgan maqsadga erishishga qaratilgan va undan tashkari ifodalangan xarakatdir. Aniq ifodalanmagan iroda bitishuv bo'la olmaydi. Irodani tashkarida ifodalashda u boshqa shaxslarning idrok etishi uchun kulay bo'lsa va yuridik oqibatlar keltirib chiqarmasa, irodani ifodalash (istak bildirish) deyiladi. Shuning uchun ham bitim sub'ektiv unsur bo'lган iroda bilan ob'ekt unsur bo'lган istak bildirishning birligidan iborat bo'ladi. Bitim uchun istak bildirish muxim unsur bo'lib, u bilan yuridik oqibatlar bog'liq bo'ladi. Tomonlarning istak bildirishi ularning irodasiga to'gri kelmasa, bitim amalga oshmagan xisoblanadi va tomonlar, xoxlasalar, o'z ifodalarini yangidan pfodalashlari mumkin.

Agar bir tomonning istak bildirishi uning xaqiqiy prodasiga mos kelmasa, u xolda bitimga nshonch bildirilmaydi, unda istak bildirishga ahamiyat bernlmaydi, balki shaxsning chiiakam irodasi xisobga olinadi.

Ayrim xollarda bitim amalga oshmogi uchun istak bildirishdan tashkari yana pul yoki narsa-buyumlarni berish talab qilinadi. Shuning uchun ham bitimni taxriflashda "xarakat" tushunchasi ishlataladi, u istak bildirishni ham, boshqa yuridik xarakatni ham kamrab oladi, u bitimni xaqiqiy deb e'tirof qilish zarurdir (mol-mulkni saklash soxasidagi bitim faqat tomonlarning istak bildirishini emas, balki narsa-buyumning o'zini berishni ham talab qiladi).

Bitimlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular bitimga asos bo'ladigan qandaydir mansadga erpshish uchun amalga oshiriladi. Ayrim xollarda bitimning asosi uning mazmunidan bilinib turadi. Boshqa xollarda bitim mazmunidan uni amalga oshirish maqsadini bilib olish kiyin bo'ladi (vekselg', chek). Birinchi xolda bitim tasodifiy, ikkinchi xolda abstrakt (mavxum) deyiladi.

Bitimlar qanday maqsadda amalga oshirilayotgan bo'lsa, ana shu maqsadga erishish uchun ular muayyan shartlarga muvofik kelishi zarur. Birinchidan, bitimni amalga oshiruvchi ongli ravishda xarakat qilishi, yaxni o'z xarakatlari oqibatini tushunishi lozim. Ikkinchidan, bitimni amalga oshiruvchi erkin, xech bir majbur qilishsiz xarakat qilishi lozim. Uchinchidan, bitim qonuniy bo'lishi — amaldagn qonunlarga mos kelishi kerak. To'rtpnchidan, bitim qo-nunda mazkur bitim uchun birdan-bir mumkin bo'lган shaklda amalga oshirilishi lozim. Agar bu shartlardan akalli bittasiga rioya etilmagan bo'lsa, bitim bo'lmarur yoki mutlaqo xaqiqiy emas deb e'tirof etiladi.

Huquq normasiga ko'ra tuzilgan paytida xaqiqat bo'lмаган bitimlar bo'lmarur yoki mutlaqo xkakikiy emas deb ataladi. Amalga oshirilgan vaktida tomonlarda huquq va vazifalar keltirib chiqarsa, lekin baxslashuv natijasida xaqiqiy emas, deb topilsa, nisbatan xaqiqiy emas yoki baxslashiladigan bitimlar deyiladi. Baxslashiladigan bitim xaqiqiy emas, deb topilsa, u amalga oshirilgan paytidan boshlab xaqiqiy emas deb tan olinadi.

Bitimning xaqiqiy emas deb topilishi g'uyidagalarga sabab bo'ladi: birinchidan, xar bir tomon bitim bo'yicha nima toptirgan bo'lsa, unga shu narsa qaytariladi, olingan narsani natura shaklida qaytarishning iloji bo'lmasa, uning kimmati pul bilan qaytariladi, bu ikki tomonlama restitusiya deb ataladi; ikkinchidan, tomonlar olgan barcha narsalar yoki olishga mo'ljallangan narsalar davlat daromadiga o'tkaziladi, yaxni restitusiyaga yo'l ko'yilmaydi; uchinchidan, bitta tomonga (zarar ko'rgan tomonga) mol-mulkni qaytarish va aybdor tomon olgan barcha narsani davlat daromadiga o'tkazish yoki bir tomonlama restitusiya. Bundan tashkari, qonunda kelgusi vaktga bitimni to'xtatish imqoniyati, aybdor tomonning zarar ko'rgan tomonga uning o'rmini to'ldirishi (mol-mulkni qaytarib berishdan tashkari).

Respublikaning fuqarolik qodeksiga muvofik g'uyidagi bitimlar xaqiqiy sanalmaydi:

- gayriqonuniy bitimlar;
- yuridik shaxsning huquqiy qobil iyatini buzgan xolda tuzilgan bitimlar;
- muomala layoqatiga ega bo'limgan shaxsning chuzgan bitimlari (mayda maishiy bitimlardan tashkari; ular bitimni tuzish vaqtida amalga oshiriladi);
- qonunda belgilangan shaklni buzib amalga oshirilgan bitimlar, agar bunday oqibat qonunda ko'zda tutilgan bo'lsa;
- soxta yoki yolrondakam bitimlar, yaxni yuridik oqibatlarni vujudga keltirish niyatisiz yoki boshqa bitimni niqoblash uchun tuzilgan bitimlar.

Nisbatan xaqiqiy yoki extiroz bildiriladigan bitimlarga uning katnashchilarining xoxishi to'laqonli bo'limganligi sababli extiroz bildiriladi-gan bitimlar yoxud unga boshqa tomonning noto'gri taxsiri yoki sharoit taxsiri ostida tuzilgan bitimlar kiradi.

Bitim katnashchilari xoxishining to'laqonli bo'lmasligi uning sud tomonidan xaqiqiy emas deb topilishi uchun asos bo'llib xizmat qiladi:

- 15—18 yoshli baloratga yetmagan o'smir tomopidan ota-onasining rozilgisiz bitim tuzilgani xaqida ota-onalar, vasiylar Da'vosi bo'yicha;
- muomala layoqati cheklangan fuqaroning uni vasiylikka olgan fuqaroning rozilgisiz bitim tuzgani, spirtli ichimliklar yoki giyovand moddalarni suiIste'mol qilish oqibatidir;
- muomala layoqati fuqaro bitim tuzilgan vaktda o'z xatti-xarakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan xolatda bo'lganda (kuchli mast bo'lish, kuchli asabiy xayajonlanish va x. k.).

Bitimni amalga oshirgan shaxsning irodasini shakllantirishning normal bo'limgan shart-sharoitlariga g'uyadagilar kiradi:

- anglishuv u biror xolat xaqidagi xato tasavurdan iborat. Shu bilan birga yanglishuv muxim bo'lishi kerak, shaxs usiz oqilonan ish ko'rib va narsalarning xaqiqiy axvolini bilib xarakat qilganda bu bitimni amalga oshirmagan bo'lardi;

— aldash, yolron gap aytish, vaxda berish, qandaydir faktlar xaqida xech narsa aytmaslik yo'li bilan boshqa shaxsni ataylab yanglishtirish. Aldash faqat bitim katnashchisi tomonidan emas, balki uning iltimosi yoki ruxsati bilan uchinchi shaxs tomonidan ham bo'lishi mumkin;

— zo'ravonlik— boshqa shaxsning o'ziga yoxud uning karindoshlariga jismoniy yoki maxnaviy zulm o'tkazish yo'li bilan uning irodasiga gayrihuquqiy taxsir ko'rsatish;

— do'k qilish, boshqa tomonga gayrihuquqiy taxsir ko'rsatish, buning oqibatida bitimga kirishadi;

— bir tomon vaqilining ikkinchi tomon vakili bilan yovuz niyat bilan kelishuvga kirishi—bu keli-shuv vakilga zarar yetkazish xaqidagi kelishuv bo'lib, lekin u karshi agent yoki vakilning o'zi, yoxud unisi va bunisining manfaati yo'lida amalgaloshiriladi;

— shaxsda vaqtincha birinchilik o'tkazish uchuv mablag, birinchi galda zarur bo'lgan buyumlar yo'kligini ifodalovchi ogir vaziyatlar natijasida nixoyatda foydasiz bitim tuzilishi.

Bitimlar bir tomonlama, ikkn tomonlama yokp ko'p tomonlama bo'ladi. Bir tomonlama bitimlar shunday bitimlarki, bunda bitta shaxsning xatti-xarakati boshqa shaxslar uchun huquq va vazifalar vujudga keltiradi (vasiyat, ishonchnogla berish). Ikki yoki ko'p tomonlama bitimlar — bu ikki yoki bir necha kishi-ning shartnomalaridir (oldi-sotdi, pudrat, yollanish. shartnomasi).

Ko'p xollarda bitimning huquqiy oqibatlari g'uyidagilarni belgilash bilan bog'liq bo'ladi a) tomonlarda huquq; va vazifalar paydo bo'la boshlaydigan vakt; b) bitimni bajarish vaqt; v) bitimni to'xtatish payti. Bunday bitimlar muddatli bitimlar deyiladi. Ular muayyan muddatga tuzilgan bitimlarga (agar muddati boshlanishi ma'lum bo'lsa) va nomuayyan muddatga tuzilgan bitimlarga (bunda muddati boshlangani ma'lum bo'lmaydi) bo'linadi.

Agar muddati aniq ko'rsatilmagan bo'lsa, u xolda bitim bo'yicha ishga kirishish vaqolatli tomonning talabi bilan istalgan paytda boshlanishi lozim. lekin yetti kunlik imtiyozli muddat berkladi.

Bitim bo'yicha huquq va vazifalarning paydo bo'lishi yoki to'xtatilishi qandaydir xolatlar, shart-sharoitlarning boshlanishiga borlik bo'ladi, ular bitim mazmuniga kiritiladi. Bunday bitimlar shartli bitishuvlar deyiladi. Shartlar g'uyidagi talablarga javob berishi lozim:

- ular keljakka qaratilgan bo'lishi;
- ular mujarrar bo'lmasligi lozim, aks xolda ular muddatli shartlarga aylanib qoladi;
- ular g'ayrihuquqly bo'lmasligi lozim.

Shartlar kechiktirib bo'ladigan bo'lishi mumkin, huquq va vazifalar faqat ana shu shartlar boshlanishi bilan paydo bo'lishi mumkin. Shuningdek, beqor qilinadigan shartlar bo'lishi ham mumkin, bunda huquq va vazifalarning to'xtatilishi shartlarning boshlanishiga bog'liq kilib ko'yiladi. huquq va vazifalar bitim tuzilgandan keyin darxol vujudga keladi.

Bitim qonunda belgilangan muayyan ko'rinishda bo'lib, u orzaki va yozma shaklda bo'lishi mumkin. Yozma bitim oddiy va notarial bitimlarga bo'linadi.

Yozma shaklda bitim istak bildirgan shaxslar yoki ularning vakillari tomonidan imzolanishi lozim. Agar shaxs jismoniy kamchiligi yokp kasalligi oqibatida bitimga o'z qo'li bilan imzo ko'ya olmasa, uni imzolashpi boshqa shaxsga topshirishga xaklidir. Lekin bu nmzo lozim darajada (notarial yo'l bilan, uy-joy boshqarmasida, ish joyida) tasdiklanishi kerak.

Xat yoki telegramma ayrboshlash, tasdiknomalar ham oddiy yozma bptim xisoblanadi (agar ^onunda boshqa narsa ko'zda tutilmagan bo'lsa).

Agar oddiy yozma shaklga rioya qilinmasa, nizo kelib chiqqan takdirda, tomonlar garchi yozma dalillar keltira olsalar ham, guvoxlarga tayana olmaydilar.

Agar Da'vo bildirilgan tomon bitim tuzilganligi faktini, uaing bajarilmaganligi yoki qisman bajarilmaganlini inqor etmasa, u xolda sud Da'voni qondirishga xakli bo'ladi.

Qonun talab qilgani xolda yozma shaklga rioya etilmasligi bitimni xaqiqiy emas deb topishga olib keladi.

Notarial bitim qonunda ko'zda tutilgan xollarda, xususan uyni sotish-olishda, kishloq joylaridan tashkarida besh yuz so'mdan ortik mikdordagi mol-mulkni inxon etgan shartnomasida, vasiyat tuzish chogida shart bo'ladi.

Ayrim bitimlar saxy-xarakatlar shaklida tuzilishi mumkin, ular o'z-o'zidan shaxsning bitimga ki-rishuv xaqidagi niyatidan guvoxlik beradi (qonklyudent bitimlar).

Qimmatli qog'ozlar nomi yozilgan, order shaklidagi takdim etiladigan qorozlar bo'lishi mumkn. Takdim etiladigan kimmatl qogozda takdim etuvchining nomi yozilmaydi va uni unga ega bo'lgan xar kkm takdim etishi mumkin (lotoreya bilet). Nomi yozilgan kimmatl qogozda shaxsning nomn kayd etilgan bo'lib, u xujjatda mustaxkamlangan mulkiy huquqni amalga oshirishga vaqolatli xisoblanadi.

Order shaklidagi kimmatl qogoz birinchi marta xarid qilgan muayyan shaxs nomiga tuzilib, "uning buyruriga binoan" deb ko'rsatiladi. Bu kimatli qogozda ko'rsatib o'tilgan shaxsning o'z navbatida Qarz oluvchi mazkur qogozi bo'yicha kimga to'lashi lozimligi ko'rsatiladi (chek, qonosament).

Kimmatl qorozlarga g'uyidagilar kiradi:

— **obligasiyalar** — kimmatl qogoz bo'lib, uni saklovchining obligasiyani chiqaruvchi shaxsdak obligasiyaning unda ko'rsatilgan nominal kiymatiyai yoki

boshqa mulkiy ekvivalentni ko'rsatib o'tilgak muddatda olish huquqini tasdiklaydi. Obligasiya uni saklovchiga unda kayd etilgan nominal kiymat foizini olish huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarni beradi. Obligasiyalar takdim etiluvchi yoki nomi yozilgan obligasiyalar bo'ladi, ular erkin muomalada yoxud muomala doirasi cheklangan bo'lishi mushtan;

— **chek** — kimmattli qogoz u chek beruvchining chekni sakklovchiga unda ko'rsatilgan summani to'lashi xaqida bankka bergen va xech kimga bog'liq bo'lman yozma faoliyatini o'z ichiga oladi. Chek qonunda belgilangan muddatda to'lash uchun ko'rsatilmogi lozim;

— **veksel** — kimmattli qogozu vekselg' beruvchining yoki vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining unda nazarda tutilgai muddat yetib kelishi bplan vekselg' egasiga (vekselg' beruvchnga) muayyan summani to'lash bo'yicha xech kimga bog'liq bo'lman majburiyatani tasdpklaydi. Birinchi xolda vekselg' oddiy, ikkinchi xolda o'tkaziluvchi vekselg' deyiladi;

— **aksiya** — kimmattli qogoz u aksiyani saklovchining (xissadorning) xissadorlik (aksionerlik) jamiyati foydasining bir qismini dividend sifatida olishga, xissadorlik jamiyati ishini boshqarishda ishtirok etishga jamiyat tugatilgandan so'ng uning qolgan mulkining bir qismini olishga bo'lgan huquqini tasdkklaydi. Aksiyalar ham nomi yozilgan va takdim etuvchpga mo'ljallangan, erkin muomalada yoki cheklangan doirada muomalada bo'ladigan aksiyalar bo'ladi;

— qonosament — tovarni tasarruf qilish xujjati bo'lib, uni saklovchining xujjatda ko'rsatilgan yukni tasarruf qilish va tashib bo'lingandan so'ng yukni olish huquqini tasdiklaydi;

— jamarma **sertifikati** — pul mablaglari ko'yilganligi xaqida bankning beradigan yozma guvoxnomasi bo'lib, pul ko'yuvchining belgilangan muddat tomon bo'lgach, omonat summasini va undagi foiz mikdorini mazkur bankning xar qanday bo'limidan olishga bo'lgan huquqini tasdiklaydi. Sertifikat muddatidan oldin xak to'lash uchun takdim etilgan takdirda pasaytirilgan mikdor bo'yicha xisoblangan omonat summasi va foizlar to'lanadi. Jamarma sertifikatlari nomi yozilgan va tavdim etuvchiga mo'ljallakgan bo'ladi.

Mol-mulk. Mol-mulk deyilganda ayrim narsa-buyumlar yoki ularning jami tushuniladi. Baxzi xollarda mol-mulk kimmattli qogozlar, pul, shuningdek talab qilish huquqidan (xaridordan) iborat bo'ladi. Baxzan bu atama mulkiy huquqlar yoki mulkiy huquqlar va vazifalar majmui sifatida ham ishlataladi.

Mol-mulk ko'chmas va ko'chma mol-mulkka bo'linadi. Ko'chmas mol-mulkka yer uchastkalari, binolar, inshootlar, korxonalar, boshqa mulkiy majmualar, ko'p yillik o'simliklar kiradi. Mol-mulkni uning vazifasnga zarar yetkazmagan xolda bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish mumkin bo'lsa, (agar qonunda boshqa narsalar belgilanmagan bo'lsa), bunday mol-mulk ko'chma mulkka kiritiladi.



## Da'vo muddati

**Da'vo** muddati. Fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari o'zlarining sub'ektpz huquqlarini faqat muayyan muddat mobaynida — Da'vo bildirish muddati ichida xal etishlari mumkin. Da'vo bildirish muddati deyilganda huquqi buzilayotgan shaxsning Da'vosi bo'yicha uning huquqini xlmoya qilish muddati tushuniladi.

Fuqarolik qonuni Da'vo bildirishning ikki xil muddatini: umumny va kiskartirilgan muddatini belgilaydi. Da'vo bildirishning umumiyligi muddati uch yil kilib belgilangan. Agar aniq xodisa bo'yicha kiskartirilgan muddat nazarda tutilmagan bo'lsa umumiyligi muddat tatbiq etiladi. Kiskartirilgan muddat talablarning ayrim turlari uchun nazarda tutilgan bo'lib, davom etishi turlicha bo'ladi, masalan, jarimalar undirnsh xaqidagi Da'volar yuzasidan muddat—olti oy qilib belgilangan.

Da'vo bildirish muddatining o'tishi salga muro-jaat qilish huquqini yo'lda chiqarmaydi. Sub'ektiv fuqarolik huquqi buzilgan paytdan boshlab kancha vakt o'tishidan katxi nazar manfaatli shaxs sudga Da'vo bildirib ariza berishi mumkin. Da'vo bildirish muddatining o'tib ketishi Da'voga rad javobi beripi uchun asos xnsoblanadi. Sudga Da'vo bildirish uchun ariza berish huquqi — prosesual ma'nodagi Da'vo bildirish huquqi bqlib, buzilgan sub'ektiv fuqarolik huquqini majburiy ravishda amalga oshirish imkoniyati esa moddiy ma'nodagi Da'vo bildirish huquqidan iboratdir.

Da'vo bildirish muddati o'tib ketgan taqdirda sud ishni to'xtatib g'uyishga xaqli emas. U tegishli qaror chiqarishi lozim.

Da`vo bildirish muddatlarini xisoblash uchun muddatning qachon boshlangangini aniqlash muxim ahamiyat kasb etadi. Qonunda belgilanishicha, shaxs o'z huquqining buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bqlgan kundan e`tiboran da`vo bildirish huquqiga ega. Da`vo bildirish mudati kachon boshlanganligini bilish majburiyligini talab qilish uchun majburiyatlarni bajarish muddati qanday aniflanganiga bog'likligini ham bilish lozim. Agar u bklgilanmagan bqlsa kreditor ijroni talab qilishga xaklidir, Qarzdor esa majburiyatni istalagan vaqtida bajarishi shart. Shu vaktdan boshlab kreditorda da`vo bildirish huquqi boshlanadi. Agar Qarzdor majburiyatini bajarmasa, da`vo bildirish muddati Qarzdorga beriladigan yetti kunlik imtiyozli muddat tamom belgandan keyin boshlanadi.

Qonunda kuzda tutilgan ba`zi xollarda da`vo bildirish muddatini tuxtatish va tanaffus qilish ham sodir bqlishi mumkin. Tuxtatish shuni bildiradiki, qonunda kuzda tutilgan xolat buyicha da`vo bildirish muddatida da`vo bildirishga xalakit beruvchi muayyan vakt istisno qilinmaydi. Da`vo bildirish muddatining borishi g'uyidagi xollarda tuxtilishi mumkin: agar da`vo bildirishga favkulotdda va daf kilib bqlmaydigan voqeа tuskinlik kilsa; Respublika qonunlarida huquq va majburiyatlarni bajarish muddatini uzaytirish belgilangan bqlsa; da`vogar yoki javobgar xarbiy xizmatda bqlsa.



Da`vo muddatida tanaffus qilingan takdirda tanaffusgacha utgan vakt da`vo bildirish muddatiga kiritilmaydi. Tanaffusdan keyin bu vakt yana boshlanadi. Tanaffus qilish uchun asoss g'uyidagi xollarda bqladi: da`vo belgilangan tartibda bildirilsa-yu, faqat uni chud yoki xujalik sudi kurib chiqishga qabul kilsa. Bunday kurib chiqish qabul qilinmasa, da`vo bildirish muddatida tanaffus qilinmaydi.

Da`vo bildirish muddati quyidagi xollarda tatbiq etilmaydi:

- shaxsiy nomulkiy huquqlar buzilishidan kelib chiqadigan talablarga (qonunchilikda kuzda tutilgan xollar bundan mustasnodir);
- omonatchilarining omonatlarni berish xaqida bankka bildirilgan talabiga;
- fuqaroning xayotiga yoki salomatligiga yetkazilgan zararni qoplash xayoidagi talabnomaga. Birok, da`vo bildirish muddati utgandan keyin bildirilgan talablar da`vo bildirishdan keyin kamida uch yil ichida qondiriladi;
- qonunda belgilangan xollarda va boshqa talablarga.